



O'ZBEKISTON SUD EKSPERTIZASI



Huquqiy, ijtimoiy, ilmiy-amaliy

JURNAL

2024 №1(12)

O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-apreldagi 315/5-son qarori bilan "O'zbekiston sud-ekspertizasi" ilmiy jurnali yuridik va siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

MUNDARIJA

| | |
|---|-----|
| Raxmanov Sh.N. Ekspertiza uslubiyotini takomillashtirishda integratsiyaviy maxsus bilimlar..... | 2 |
| Jurayev F. X. Ekspertiza xulosalariga baho berishning ayrim masalalari..... | 8 |
| O'rozov J.N. Lingvokriminalistika amaliy tilshunoslikning zamonaviy yo'nalishi sifatida: shakllanishi va taraqqiyoti..... | 12 |
| Najmidinova N.Y. Lingvistik ekspertizada obro'sizlantiruvchi nutq strategiyasi belgilari..... | 20 |
| Мусаев О.Р., Колжанов Н.Т. Особенности становления и развития судебной лингвостило-лингвистической экспертизы в Узбекистане..... | 23 |
| Sattorova D.A. Xatshunoslik ekspertizasini o'tkazishning dolzarb muammolari, sohani rivojlantirishning ahamiyati..... | 28 |
| Nosirova M.B., Yakubov I.T. Genetik markerlarning hayvonlar seleksiyasida qo'llanilishining ahamiyati..... | 34 |
| Ахмедова Р.К., Пак Э.В. Актуальные проблемы идентификационного исследования синтетических наркотических средств..... | 39 |
| Kamilova M.X. Sud-tuproqshunoslik ekspertizasini tayinlash va o'tkazish uchun materiallar tayyorlash..... | 48 |
| Boisxo'jayeva A.A., Axmedova R.K., Xalilova N.Sh. "Materiallar, ashyolar va buyumlar kriminalistik ekspertizasi" laboratoriyasi: kecha va bugun..... | 52 |
| Saidov M.S. Kimyoviy o'z-o'zidan yonish hodisasi tadqiqoti va yong'in sababini aniqlash usullari..... | 58 |
| Abduvahobov Sh.A. Jinoyat protsessi ishtirokchisi sifatida mutaxassis va unga qo'yiladigan talablar..... | 62 |
| Fayzullayev Sh.F. Qonunchilikdagi nomuvofiqliklar va ularning yechimlari..... | 67 |
| Musayev M.T. Ichki ishlar organlarida ma'naviy-ma'rifiy ishlarni yangi bosqichga ko'tarish va uning istiqboldagi vazifalari..... | 72 |
| Rajabov Sh.Sh. Yoshlar ongini kiberekstremizm xavfidan himoyalashning axloqiy-huquqiy mezonlari..... | 76 |
| Kuranov U. Missionerlikning global miqyosda namoyon bo'lish xususiyatlari..... | 81 |
| Paluaniyazov B.Y. Markaziy Osiyoda xavfsizlik va barqarorlikni ta'minlashning ustuvor yo'nalishlari..... | 85 |
| Muydinov D.N. Migratsiya borasidagi nazariyalarda ijtimoiy-iqtisodiy yondashuvlar..... | 90 |
| Bobokulov Sh. Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlardan ijara huquqi asosida foydalanish tartibi..... | 98 |
| Xasanova S.O'. Aksiyadorlik jamiyatlarida yig'ilish qarorlarining mohiyati..... | 103 |

Muassis:

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi X.Sulaymonova nomidagi Respublika sud ekspertiza markazi

Bosh muharrir:

Akram XALILOV

Bosh muharrir o'rinbosari:

Uchkun UZAKOV

Mas'ul kotib:

Nuriddin QOLQANOV

Tahrir hay'ati:

Akbar TASHKULOV

Sherzod RABIYEV

Jamshidxon NURITDINOV

Istam ASTANOV

Narzulla JO'RAYEV

Odil MUSAYEV

Eshmuxamad KADIROV

Shuhrat RAXMANOV

Saidillaxodja SAIDXODJAYEV

O'ktam SHAKAROV

Nilufar XALILOVA

Nadejda KORABLYOVA

Mas'ul muharrir:

Husan NISHONOV

Dizayner:

Faxriddin RAHIMOV

Sahifalovchi:

Malohat TOSHOVA

"O'zbekiston sud ekspertizasi" huquqiy, ijtimoiy, ilmiy-amaliy jurnali
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 2021-yil 4-iyunda
1185-sonli guvohnoma bilan ro'yxatga olingan.

Tahririyat manzili:

100105, Toshkent shahri, Mirobod tumani
Farg'ona yo'li ko'chasi.

Telefonlar:

(71) 209 11 55 (153 ichki), (93) 171 37 74

web-site: www.sudex.uz

e-mail: info@sudex.uz

facebook.com/sudex.uz

telegram.me/sudex.uz

Jurnal 29.03.2024-yil-yilda bosmaxonaga topshirildi.
Qog'oz bichimi 60x84 1/8. Ofset usulida bosildi.
Shartli 6,75 bosma taboq. Buyurtma № 001. Adadi 100.

"Reliable Print" MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Qushbegi ko'chasi, 6-uy.

QISHLOQ XO'JALIGIGA MO'LJALLANGAN YERLARDAN IJARA HUQUQI ASOSIDA FOYDALANISH TARTIBI

BOBOKULOV

Shoxnazar,

*“Toshkent irrigatsiya va qishloq
xo'jaligini mexanizatsiyalash
muhandislari instituti” milliy tadqiqot
universiteti dotsenti,
yuridik fanlari nomzodi*

ANNOTASIYA

Maqolada qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yer uchastkalaridan ijara huquqi asosida foydalanishning huquqiy asoslari tahlil qilingan. Shuningdek, mazkur sohaga oid normativ hujjatlarni o'rganish va ularni tahlil qilish orqali nazariy xulosalarga erishilgan.

Kalit so'zlar: qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlar, ijara, elektron onlayn auksion, qishloq xo'jaligi korxonalari, shartnoma, huquqiy munosabat, bitim.

АННОТАЦИЯ

В статье проанализированы правовые основы использования земельных участков сельскохозяйственного назначения на праве аренды. Также путем изучения и анализа нормативных документов, относящихся к данной сфере, достигнуты теоретические выводы.

Ключевые слова: земля сельскохозяйственного назначения, аренда, электронный онлайн-аукцион, сельскохозяйственные предприятия, договор, правоотношения, сделка.

ANNOTATION

The article analyzes the legal basis for the use of agricultural land plots on the right of lease. Theoretical conclusions were also reached by studying regulatory documents related to this area and analyzing them.

Key words: land for agricultural purposes, rent, electronic online auction, agricultural enterprises, contract, legal relationship, transaction.

So'nggi yillarda yerdan foydalanish sohasida ko'plab yangiliklar joriy qilindi, xususan yerdan ijara asosida foydalanish huquqi rivojlandi, yer uchastkalariga bo'lgan ashyoviy huquqlar kimoshdi savdolarida sotila boshlandi, eng muhimi rivojlangan bozor talablariga mos ravishda yer uchastkalarini xususiylashtirish ishlari yo'lga qo'yildi.

Yer qishloq xo'jaligida ishlab chiqarish vositasi vazifasini bajaradi. Uning cheklanganligi va qayta tiklash qiyinligi sababli yerdan foydalanishda tejamli va unumli foydalanish eng muhim va dolzarb masaladir. O'zbekiston Respublikasida mavjud bo'lgan yer toifalari orasidan qishloq xo'jaligi maqsadlari uchun mo'ljallangan yerlarga katta ustunlik berilgan. Chunki qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi istiqbolimizning asosiy yo'nalishlarini belgilab beradi [9].

Agrar sektorni tubdan isloh qilish va jadal rivojlantirish muammolari islohotlarning dastlabki bosqichida hamda O'zbekistonning bozorga o'tish strategiyasida hal qiluvchi ahamiyat kasb etdi. Ko'rilgan chora-tadbirlar natijasida qishloqda agrar islohotlar jarayonida bozor iqtisodiyoti talablariga ancha mos keladigan yangi xo'jalik strukturasi shakllandi.

O'zbekiston Respublikasi yer qonunchiligiga ko'ra, qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlar ijara huquqi asosida quyidagilarga beriladi:

1) qishloq xo'jaligi kooperativlariga, korxonalar, muassasalar, tashkilotlarga, shuningdek, boshqa yuridik shaxslarga – tovar qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini yuritish uchun;

2) tajriba-ishlab chiqarish, o'quv, o'quv-tajriba va o'quv-ishlab chiqarish xo'jaliklari hamda boshqa davlat ilmiy-tadqiqot va ta'lim muassasalariga – qishloq xo'jaligi sohasida ilmiy-tadqiqot hamda tajriba-sinov ishlarini bajarish uchun;

3) O'zbekiston Respublikasi fuqarolariga – fermer xo'jaliklarini yuritish uchun;

4) O'zbekiston Respublikasi fuqarolariga

– dehqon xo'jaliklarini, yakka tartibda bog'dorchilik, polizchilik va chorvachilikni yuritish uchun.

Bo'sh turgan qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yer uchastkalarini quyidagi o'lchamlarda ajratiladi:

1) dehqon xo'jaligini yuritish uchun – 0,06 gektardan 1 gektargacha;

2) fermer xo'jaliklariga va boshqa yuridik shaxslarga:

➤ sabzavotchilikka ixtisoslashganlarga – kamida 3 gektar;

➤ bog'dorchilikka, uzumchilikka ixtisoslashganlarga – kamida 3 gektar;

➤ chorvachilik mahsulotini ishlab chiqarishga ixtisoslashganlarga ozuqa ekinlarni yetishtirish uchun (shartli bir bosh qoramol uchun) – sug'oriladigan yerlardan – kamida 0,3 gektar, lalmikor yerlardan – kamida 1 gektar, yaylovlar va pichanzorlardan – kamida 2 gektar;

➤ paxtachilik va g'allachilikka ixtisoslashganlarga – kamida 30 gektar;

➤ g'allachilik va sabzavotchilikka ixtisoslashganlarga – kamida 10 gektar;

3) agrosanoat klasterlari, shu jumladan kooperatsiya shaklidagi klasterlar uchun:

➤ paxtachilik-to'qimachilikka ixtisoslashganlarga – kamida 2000 gektar;

➤ g'allachilikka ixtisoslashganlarga – kamida 1000 gektar;

➤ sabzavotchilik va polizchilikka ixtisoslashganlarga – kamida 200 gektar;

➤ bog'dorchilik, uzumchilikka ixtisoslashganlarga – kamida 100 gektar;

➤ chorvachilik mahsulotini ishlab chiqarishga ixtisoslashganlarga ozuqa ekinlarini yetishtirish uchun (shartli bir bosh qoramol uchun) sug'oriladigan yerlardan – kamida 0,3 gektar, lalmikor yerlardan – kamida 1 gektar, yaylovlar va pichanzorlardan – kamida 2 gektar.

Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlar qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda yuridik va jismoniy shaxslarga qishloq xo'jaligini yuritish, shuningdek, o'zga maqsadlar uchun berilishi mumkin [1].

Qishloq xo'jaligi yerlari o'zga maqsadlarda, odatda, keyinchalik qishloq xo'jaligi maqsadlarida foydalanish uchun yaroqli holga keltirish sharti bilan vaqtincha foydalanishga beriladi.

Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi uchun ajratilgan yerlar eng qimmatli yerlar hisoblanib,

aholining oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan va sanoatning xomashyoga bo'lgan ehtiyojini qondirishda o'ta muhim ahamiyatga ega[5].

Qishloq xo'jaligi yerlaridan foydalanishda ijara munosabatlarini takomillashtirishda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 18-yanvardagi "Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yer uchastkalarini ijaraga berish tartibini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-15-sonli Farmonining qabul qilinishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Ushbu hujjatga ko'ra, 2024-yil 1-martdan boshlab qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yer uchastkalarini ijaraga berishda ochiq elektron tanlov o'rniga elektron onlayn auksion savdolari joriy etiladi hamda farmon talablari asosida quyidagilar belgilandi:

qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yer uchastkalarini elektron onlayn auksion savdolari orqali 30 yilga ijaraga beriladi, bunda boshlang'ich narx yer uchastkasining normativ qiymati miqdorida belgilanadi;

yer uchastkalarini elektron auksion savdolariga chiqarish bo'yicha materiallarni tayyorlash qonunchilikka tegishli o'zgartirishlar kiritilguniga qadar ochiq elektron tanlov uchun belgilangan tartibda, elektron onlayn savdolarini o'tkazish esa auksion savdolarini tashkil etish hamda o'tkazish tartibiga muvofiq amalga oshiriladi;

qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yer uchastkalarini ijaraga berish bo'yicha elektron onlayn auksion savdolari g'oliblariga yer uchastkasi narxini uch yil muddatda har oyda teng ulushlarda bo'lib-bo'lib to'lashga ruxsat beriladi;

dehqon xo'jaligi, yakka tartibda bog' dorchilik, polizchilik va chorvachilikni yuritish uchun yer uchastkalarini ijaraga berish bo'yicha elektron onlayn auksion savdolari g'olibi bo'lgan «Temir daftar», «Ayollar daftari» va «Yoshlar daftari»da ro'yxatda turgan fuqarolarga yer uchastkasi narxini besh yil muddatga teng ulushlarda foizsiz bo'lib-bo'lib to'lashga ruxsat beriladi [6].

2024-yil 1-martga qadar 15626,8 gektar qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yer uchastkalarini elektron onlayn auksion savdolariga chiqarilishi rejalashtirilgan (aholi punktlariga yaqin, suv ta'minoti yaxshi, unumdorlik yuqori bo'lgan,

maydoni 5 gektardan yuqori konturlarni 1 gektargacha lotlarga bo'lgan holda).

2024-yil 1-martdan boshlab quyidagilar nazarda tutiladi:

ochiq elektron tanlovga chiqarilgan va g'olib aniqlanmagan qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yer uchastkalarini avtomatik tarzda elektron onlayn auksion savdolariga chiqarilishi;

yer uchastkalarini ijarachilariga ijaraga berilgan yer uchastkalarini bo'yicha o'z huquq va majburiyatlarini yer uchastkasidan foydalanish maqsadini o'zgartirmagan holda boshqa shaxsga o'tkazishga (qayta ijaraga berishga) ruxsat berish.

Bunda:

– ijaraga oluvchi yer uchastkasidan kamida uch yil davomida o'zi foydalangan bo'lishi shart, ushbu muddat ijaraga huquqi davlat ro'yxatidan o'tkazilgan paytdan boshlab hisoblanadi;

– yuridik shaxslarga elektron onlayn auksion savdolari, ochiq elektron tanlov yoki tanlov o'tkazmasdan davlat organlarining qarorlari bilan to'g'ridan-to'g'ri ijaraga berilgan yer uchastkalarini boshqa shaxsga o'tkazishga (qayta ijaraga berishga) ijaraga huquqi davlat ro'yxatidan o'tkazilgan kundan boshlab besh yildan keyin yo'l qo'yiladi.

Agrosanoat klasterlariga yer uchastkalarini Vazirlar Mahkamasi tomonidan to'g'ridan-to'g'ri ijaraga berish tartibi bekor qilindi. Klasterlar yer uchastkalarini elektron onlayn auksion savdolari orqali yoki yirik investitsiya loyihasini amalga oshirish uchun eng yaxshi taklifni tanlab olish yo'li bilan ijaraga olishlari mumkin bo'ladi [6].

Bizning fikrimizcha, Yer kodeksining 24-moddasini qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yer uchastkalariga ijaraga huquqi asosida berishga oid bandlarini quyidagicha tahrirlash maqsadga muvofiq:

Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yer uchastkalarini quyidagilarga ijaraga huquqi asosida beriladi:

1) elektron onlayn auksion natijalari asosida – jismoniy va yuridik shaxslarga;

2) agrosanoat klasterlari yer uchastkalarini elektron onlayn auksion savdolari orqali yoki yirik investitsiya loyihasini amalga oshirish uchun eng yaxshi taklifni tanlab olish yo'li bilan ijaraga olishlari mumkin.

Xo'sh, amalga oshirilayotgan ushbu islohotlar yerdan ijara huquqi asosida foydalanuvchi subyektlar uchun qanday qulayliklar keltirib chiqaradi. Xorijiy mamlakatlarda yer munosabatlari sohasida o'tkazilgan islohotlar, yerganisbatan mulkchilik shaklining o'zgartirilishi va yerga nisbatan davlatning monopol huquqi o'zgartirilib, undan foydalanuvchilar doirasi kengaytirilishi katta iqtisodiy samara berishiga olib kelgan [8]. Xususan, Bolgariyada 1992-yilda "Yer to'g'risida"gi Qonun qabul qilinib, unda mamlakatda erkin yer bozorini shakllantirish nazarda tutilgan.

Ruminiyada esa 1991-yildagi "Yer to'g'risida"gi Qonunga asosan qishloq joylaridagi har bir oilaga 10 gektargacha (bir kishi uchun 0,5 gektardan kam bo'lmagan miqdorda), lekin 100 gektardan ko'p bo'lmagan miqdorda yerga egalik qilish huquqi berildi. Dehqonlarning tomorqa yerlari ularning xususiy yerlariga aylandi. Xususiy mulk sifatida yer olgan barcha fuqarolar 8 yil muddatga yer solig'i to'lovidan ozod qilindi. Ruminiya qonunchiligiga muvofiq, barcha yer egalari qishloq xo'jaligi yerlaridan maqsadli foydalanishga majburdir.

Chexiya va Slovakiyada yer islohotlari bosqichma-bosqich, tadjriy tarzda amalga oshirildi. Yer munosabatlari asosan 1991-yilda qabul qilingan Yer to'g'risidagi qonunda

belgilangan. Mazkur qonunga muvofiq, yerdan va qishloq xo'jaligi mulklaridan foydalanuvchi barcha mulkdorlarga ijarachi maqomi berilgan.

Italiyada yerdan foydalanishning amaldagi tizimi o'tgan asrning 50-yillaridan boshlab yer islohoti o'tkazilishi bilan shakllandi. Mazkur islohotni o'tkazishdan asosiy maqsad yerga nisbatan yirik mulkdorlarning monopoliyasidan voz kechib, ularga tegishli yerlarni davlat ixtiyoriga qaytarib olish va yerga bevosita o'zi ishlov beruvchi dehqon xo'jaliklariga qayta taqsimlashdan iborat edi.

Avstraliyada hanuzgacha XIX asrda qabul qilingan yerni erkin tanlash tamoyili amal qilmoqda. Avval ushbu tamoyil har qaysi Avstraliya fuqarosi muayyan o'lchamdagi (yerning hosildorligidan kelib chiqib, 200 gektardan 800 gektargacha) yerni olishi mumkinligini nazarda tutgan. Bugungi kunga kelib esa fuqarolarga beriladigan yer uchastkasi miqdori qisqargan. Avstraliyada yer uchastkalari sotish bilan bir qatorda yerni ijaraga berish ham keng tarqalgan. 1892-yilda Avstraliyada yerni 99 yilga har yili ushbu yer qiymatining 4 foizi miqdorida ijara to'lovi to'lash sharti bilan ijaraga berish haqida Qonun qabul qilingan. Bu bilan davlat yerga nisbatan mulk huquqini o'zida saqlab qolib, davlat daromadiga doimiy tushum tushib turishini ta'minlagan [8].



Bizning fikrimizcha, respublikamizda olib borilayotgan yer munosabatlariga oid islohotlardan kutilayotgan natija amaldagi Yer kodeksining 1-moddasida belgilanganidek, yer to'g'risidagi qonunchilikning asosiy vazifalari hozirgi va kelajak avlodlarning manfaatlarini ko'zlab yerdan ilmiy asoslangan tarzda, oqilona foydalanish va uni muhofaza qilishni, tuproq unumdorligini tiklash va oshirishni, tabiiy muhitni

asrash va yaxshilashni, xo'jalik yuritishning barcha shakllarini teng huquqlilik asosida rivojlantirish uchun sharoit yaratishni, yuridik va jismoniy shaxslarning yer uchastkalariga bo'lgan huquqlarini himoya qilishni ta'minlash maqsadida yer munosabatlarini tartibga solishdan, shuningdek, bu sohada qonuniylikni mustahkamlashdan, shu jumladan korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarning oldini olishdan iborat.

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasining Yer kodeksi. 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda.
2. O'zbekiston Respublikasining "Ijara to'g'risida"gi qonuni. 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-sonli tahririda.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 8-iyundagi "Yer munosabatlarida tenglik va shaffoflikni ta'minlash, yerga bo'lgan huquqlarni ishonchli himoya qilish va ularni bozor aktiviga aylantirish chora-tadbirlari to'g'risida" PF-6243-son Farmoni.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 24-martdagi "Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yer uchastkalarini ijaraga berish tartibini soddalashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" PF-91-son Farmoni.
5. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 24-noyabrdagi "Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yer uchastkalarini ijaraga berish tartibiga doir normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida" 709-son qarori.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 18-yanvardagi "Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yer uchastkalarini ijaraga berish tartibini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-15-sonli Farmoni.
7. Abdurashid Altiyev, Shoxnazar Boboqulov, Valixon Karomatov, Nuriddin Abduvaliyev. Yerdan ijara huquqi asosida foydalanishda shartnomaviy-huquqiy munosabatlar, Jamiyat va innovatsiyalar: Jild 4 № 2 (2023).
8. Kuchkinov K.A. Yerdan foydalanishga oid shartnomalarni huquqiy tartibga solish: Yurid. fan. dis. ... – Toshkent: 2012. – 17 b.
9. Bobokulov Sh. Yer uchastkasi ijarasi yerdan foydalanish huquqi shakllaridan biri sifatida. // "Sud-huquq islohotlari sharoitida fuqarolik sud ishlarini yuritishning dolzarb muammolari" mavzusidagi ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to'plami. – Toshkent: 2011-yil. -B. 142-146.